

**7. O'QUV DASTURI HAQIDA MA'LUMOT**

O'quv dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2022 yil "25" "08" dagi "1" -sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

"Adabiyot nazariyasi va zamonaviy adabiy jarayon kafedrasi mudiri: f.f.d.,

professor B.Karimov SK (imzo)

**Tuzuvchi:**

R.Tulaboyeva [imzo] (imzo)

**Taqrizchilar:**

D.Xoldorov – ToshDO\*TAU Adabiyot nazariyasi va zamonaviy adabiy jarayon kafedrasi dotsent, fil. f. bo'yicha f. dok.

Q.Qahramonov – TDPU professori, filologiya fanlari doktori

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIJ VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI**

**TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**



**BADIIY MAHORAT SIRLARI**

fanining o'quv dasturi (sillabus)

|                                      |                                                    |
|--------------------------------------|----------------------------------------------------|
| <b>Bilim sohasi:</b>                 | 200 000 – San'at va gumanitar fanlar               |
| <b>Ta'lim sohasi:</b>                | 230 000 – Tillar                                   |
| <b>Magistratura muta-xassisligi:</b> | 70230502 - Adabiyotshunoslik (Oliy adabiyot kursi) |

| Fan/modul kodi<br>302BMS 2.4 | Fan/modul turi<br>Tanlov                | Ta'lim tili<br>o'zbek     | Ishlab chiqilgan o'quv yili<br>2022/2023 |         |              |                           | Jami yuklama<br>(soat) |
|------------------------------|-----------------------------------------|---------------------------|------------------------------------------|---------|--------------|---------------------------|------------------------|
|                              |                                         |                           | O'quv mashg'ulotlari<br>(soat)           |         |              | Mustaqil ta'lim<br>(soat) |                        |
| Semestr                      | Har bir semestrda<br>fan/modulning nomi | Haftalik dars<br>soatlari | Jami:<br>ma'ruza                         | seminar | laboratoriya |                           | ECTS - Kreditlar       |
|                              |                                         |                           |                                          |         |              | Jami:                     |                        |
| 3                            | Badiiy mahorat sirlari                  | 4                         | 30                                       | 14      | 16           | 0                         | 120                    |
|                              | Jami:                                   | 4                         | 30                                       | 14      | 16           | 0                         | 120                    |

### 1.FANNING MAZMUNI –

“Badiiy mahorat sirlari” fani qadimgi davrlardan to hozirgi kungacha bo'lgan adabiy-nazariy tafakkurning asosiy xususiyatlari, o'ziga xos tamoyillaridan talabalarni boxabar qilishi bilan birga ularni turli davrlar adabiyotini mustaqil baholashga o'rgatadi. Ushbu fan adabiy-nazariy tafakkur tarixining taraqqiyot tamoyillari, turli davrlar adabiyotini yuzaga keltirgan omillar, qonuniyatlar, o'ziga xos xususiyatlari, turli davr adabiyoti namoyondalari qarashlari, nasr va nazmdagi uslubiy izlanishlardan talabani xabardor qiladi.

–“ Badiiy mahorat sirlari” fani talabani faol kitobxonlikka, bugungi kunda yaratilayotgan badiiy asarlarni tahlil qila olish malakasini hosil qilishga, turli uslubga mansub ijodkorlar to'g'risida yaxlit tasavvur berishi jihatidan ahamiyatli sanaladi.

### 2. FANNI O'QITISH NATIJALARI VA SHAKLLANADIGAN KASBIY KOMPETENSIYALAR

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba badiiy adabiyotning umuminsoniy mohiyati, adabiy-nazariy tafakkur tarixidagi o'ziga xosliklar, badiiy asar mavzusi va poetik g'oyasi, poetik tafakkurga xos belgilar, badiiy ijod qonuniyatlari va ijod psixologiyasi, badiiy adabiyotning ijtimoiy hayotdagi o'rni, badiiy asarni qabul qilish masalalari, jahon adabiyotshunosligida kechayotgan jarayonlar haqida tasavvurga ega bo'lishi kerak.

Shuningdek, nazariy bilim olgan talaba adabiy manbalarga nazariy baho bera olish, badiiy asarni filologik nuqtai nazardan talqin etish, badiiy adabiyot va san'atning mazmun-mohiyati bo'yicha adabiy subhatlar o'tkazish, mavjud adabiy manbalar asosida ilmiy xulosa va nazariy umumlashmalar chiqara olish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

### 2. FANNI O'QITISH NATIJALARI VA SHAKLLANADIGAN KASBIY KOMPETENSIYALAR

Talabalar bu fanni o'rganish orqali adabiyot tarixi, hozirgi adabiy jarayon, adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid, matnshunoslik, badiiy asarning tarkibiy qismlari, adabiy tur va janrlar, adabiyot va ijtimoiy hayot, ijodiy uslublar, ijodkor uslubi badiiy obraz, adabiy qahramon, badiiy san'atlar kabilari to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladi.

### 3. O'QUV FANI O'QITILISHI BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMALAR

Dasturda ko'rsatilgan mavzular ma'ruza, seminar shaklida olib boriladi, shuningdek, fanning dolzarb masalalari talabalarga mustaqil ish sifatida o'zlashtirish uchun beriladi. Fan zamonaviy pedagogik texnologiyaning turli metodlari orqali o'tkaziladi.

### Ta'lim berish va o'qitish metodlari –

interfaol keys-stadlar; seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); guruhlarda ishlash; taqdimotlarni qilish; jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

### 4. TALABALAR KREDITLARNI OLISH TARTIBI

“Talabalar kreditlarni olish tartibi” O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 824-sonli hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil 29-sentabrda 820-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan “Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida”gi Nizomi, shuningdek, talabalar bilimni nazorat qilish va baholash haqidagi universitet Nizomi asosida belgilanadi.

### TALABALARNI BAHOLASH TARTIBI:

Talabalar bilimni baholash tartibi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil 9-avgustda 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan “Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida”gi Nizom talablari asosida belgilanadi.

#### 1. Nazoratlarni amalga oshirish tartibi.

**Oraliq nazorat:** O'tilgan mavzular asosida \_\_\_\_\_ shaklda o'tkaziladi.

**Yakuniy nazorat:** Semestr davomida o'tilgan mavzular bo'yicha \_\_\_\_\_ shaklda o'tkaziladi.

**Izoh:** *Oraliq nazorat turi har bir fan bo'yicha fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 2 martagacha o'tkazilishi mumkin.*

Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.

Nazoratlarning o'tkazilishi muddatlari muvyan o'quv yilida tasdiqlangan o'quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.

## 2. Talabalarining bilimi baholash mezonlari:

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **5 (a'lo) baho**;

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **4 (yaxshi) baho**;

talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **3 (qoniqarli) baho**;

talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda – **2 (qoniqarsiz) baho** bilan baholanadi.

## Fan bo'yicha kurs ishi

Fan bo'yicha kurs ishi rejalashtirilmagan.

## 5. O'QUV MASHG'ULOTLARI VA MUSTAQIL TA'LIM QISMI

### 1-SEMESTR

#### 2. Ma'ruza mashg'ulotlari

| №                 | Ma'ruza mavzulari                                                                       | 1-jadval                         |               |
|-------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------|---------------|
|                   |                                                                                         | Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar) | Soatlar hajmi |
| <b>I-semester</b> |                                                                                         |                                  |               |
| 1.                | Kirish. Fanning mohiyati, maqsad va vazifalari. Badiiy mahurat sirlari haqida.          |                                  | 2             |
| 2.                | Ijodkor shaxsiyati. Badiiy asar yaratishda ijodkor shaxsiyatining o'rni.                |                                  | 2             |
| 3.                | Ijodkor va jamiyat. Jamiyatning badiiy asar yaratilishidagi tutgan io'rni va ahamiyati. |                                  | 2             |
| 4.                | Ijodiy niyatning tug'ilishi. Ijodkor g'oyasi va mavzusi.                                |                                  | 2             |

|    |                         |                                                                            |           |
|----|-------------------------|----------------------------------------------------------------------------|-----------|
| 5. | Badiiy ijod jarayoni.   | Badiiy ijod jarayoni. Ijodkorning ijod laboratoriyasi.                     | 2         |
| 6. | Ijod psixologiyasi.     | Ijod psixologiyasi. Ijodkor ruhiyati va badiiy asardagi badiiy psixologizm | 2         |
| 7. | Badiiy mahorat sirlari. | Badiiy mahorat sirlari.                                                    | 2         |
|    | <b>Jami</b>             |                                                                            | <b>14</b> |

### 3. Seminar mashg'ulotlari

#### 2-jadval

| №  | Ma'ruza mavzulari                                                | Soatlar hajmi |
|----|------------------------------------------------------------------|---------------|
| 1. | Alisher Navoiy badiiy so'z haqida.                               | 2             |
| 2. | Pushkinning adabiy-estetik qarashlari.                           | 2             |
| 3. | Gyotening adabiyotga oid fikrlari.                               | 2             |
| 4. | M. Gorkiy. Yozishga fandan o'rgandim.                            | 2             |
| 5. | R. Tagor. Adabiyot predmeti.                                     | 2             |
| 6. | M. Avezov. Abay haqidagi romanlarim ustida olib borgan ishlarim. | 2             |
| 7. | Oybek. "Navoiy" romanini qanday yozdim.                          | 2             |
| 8. | N. Eshonqul. "Men"ni izlab.                                      | 2             |
|    | <b>Jami</b>                                                      | <b>16</b>     |

Seminar mashg'ulotlar talabalarni adabiyot nazariyasiga oid ma'lumotlar bilan mustaqil tanishishga, ularni nazariy nuqtai nazaridan tahlil va talqin etishga yo'naltiradi. Talabalar egallagan bilimlarini dars chog'ida munozara yoki ma'ruza shaklida himoya qiladi. Seminar mashg'ulotlarida talabalar adabiyot nazariyasining ilmiy muammolari to'g'risida amaliy ko'nikma va malaka hosil qiladilar.

### 5. Mustaqil ta'lim:

| №  | Mavzular                                    | 4-jadval                         |               |
|----|---------------------------------------------|----------------------------------|---------------|
|    |                                             | Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar) | Soatlar hajmi |
| 1. | Amaliy mashg'ulotlarda tayyorgarlik ko'rish | Kutubxonada shug'ullanish        | 6             |

## 6. O'QUV ADABIYOTLARI VA AXBOROT MANBALARI

### Asosiy adabiyotlar

1. H. Umirov. Badiiy ijod asoslari. -T.: "O'zbekiston", 2001.
2. Ya. Parandovskiy. So'z kimyosi. - T.: "Yangi asr avlodi", 2022.

### Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. So'z ta'rifida // Hayrat ul-abror (XIV – XV boblar). MAT, 7-tom. – T.: "FAN", 1991.
2. A. S. Pushkin. Tanlangan asarlar. Ikki jildlik. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979.
3. Y.P.Ekkerman. Gyote bilan gurgunlar. – T.: "O'zbekiston", 2016.
4. M. Gorkiy. Adabiyot haqida. – T.: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1962.
5. R. Tagor. Asarlar. Sakkiz tomlik, 8-tom. – T.: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1965.
6. V. Kataev. Xavol chechaklari. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978.
7. K. Paustovskiy. Oltin gul. – T.: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1967.
8. Jahon adiblari adabiyot haqida. – T.: "Ma'naviyat", 2010.
9. Z. Freyd. Psixozanaliz haqida beshta ma'ruza. – T.: "Muharrir", 2019.
10. Oybek. MAT, 13-tom. – T.: "FAN", 1979.
11. P. Qodirov. O'ylar. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1971.
12. M. Mahmudov. Talant va ijod falsafasi. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1976.
13. A. Sher. Go'zallik yog'dusi. – T.: "Faylasuflar nashriyoti", 2017.
14. N. Eshonqul. Mendan "men" gacha. – T.: "Akademnashr", 2014.

### Elektron manbalar:

1. [www.ziyo-net.uz](http://www.ziyo-net.uz)
2. <http://www.literature.ru>

|     |                                                  |                                                        |           |
|-----|--------------------------------------------------|--------------------------------------------------------|-----------|
| 2.  | She'r va shoirlik masalasi                       | Kutubxonada shug'ullanish                              | 6         |
| 3.  | She'riyatda badiiy san'atlar muhokamasi          | Mavzuga oid ilmiy kitoblarni konspekt qilish           | 6         |
| 4.  | Yozuvchi uslubi va poetik nutq                   | Mavzuga oid ilmiy kitoblarni konspekt qilish           | 6         |
| 5.  | "Jahon adiblari adabiyoti haqida" kitobi tahlili | Nazariy adabiyotlarni o'qish                           | 6         |
| 6.  | "Mening Dog'istonim" asari muhokamasi            | Ilmiy manbalar konspekti                               | 6         |
| 7.  | "So'z kimyosi" kitobini o'qish                   | Qiyosiy talqin va tahlil etish                         | 6         |
| 8.  | "Adabiyot o'ladimi?" maqolasi tadqiqi            | Internetmanbalaridan izlab o'qish                      | 6         |
| 9.  | O'zbek adabiyotida esselar                       | Ruhiyat masalasiga doir ilmiy adabiyotlarni o'rganish  | 6         |
| 10. | Rauf Parfining badiiy mahorati;                  | Ilmiy-nazariy manbalardagi monifestlar bilan tanishish | 6         |
| 11. | Shavkat Rahmon she'riyatiga xos xususiyatlar     | Kutubxonada shug'ullanish                              | 6         |
| 12. | Zamonaviy yosh shoirlar ijodi tahlili            | Kutubxonada shug'ullanish                              | 6         |
| 13. | Mustaqillik davri o'zbek hikoyalari tahlili      | Mavzuga oid ilmiy kitoblarni konspekt qilish           | 6         |
| 14. | Hozirgi davr qissachiligi                        | Mavzuga oid ilmiy kitoblarni konspekt qilish           | 6         |
| 15. | Zamonaviy o'zbek romaniga xos xususiyatla        | Nazariy adabiyotlarni o'qish                           | 6         |
|     | <b>Jami</b>                                      |                                                        | <b>90</b> |